ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24161434

Assotsiativ zanjirlar asosida hikoya tuzishga orgatish metodikasi, bosqichlari va didaktik tamoyillari

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna –
Farg‘ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: szokirova1987@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-4026-8509

Usmonaliyeva Mahliyo Maxsutali qizi –
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
E-mail: mahliyousmonaliyeva69@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-0946-739X

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini assotsiativ zanjirlar asosida hikoya tuzishga o‘gatish metodikasi, uning bosqichlari va didaktik tamoyillari yoritiladi. Assotsiativ bog‘lanishdan foydalanish orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi, mustaqil fikrlashi va izchil bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilinadi. Hikoya tuzishning tayyorgarlik, assoysiyalarni aniqlash, rejalashtirish, matn yaratish hamda tahrirlash bosqichlari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *assotsiatsiya assotsiativ zanjir hikoya tuzish boshlang‘ich ta’lim, nutq o‘stirish, ijodiy fikrlash, didaktik tamoyillar.*

Методика обучения составлению рассказов на основе ассоциативных цепочек, её этапы и дидактические принципы»

Аннотация. *В статье рассматриваются методика обучения младших школьников составлению рассказов на основе ассоциативных цепочек, её этапы и дидактические принципы. Анализируются возможности развития словарного запаса, самостоятельного мышления и последовательной речи учащихся. Предлагаются этапы работы: подготовка, выявление ассоциаций, планирование, создание текста и редактирование.*

Ключевые слова: *ассоциация, ассоциативная цепочка, составление рассказа, начальное образование, развитие речи, творческое мышление, дидактические принципы.*

Methodology, stages, and didactic principles of teaching story writing based on associative chains

Annotation. *This article examines a methodology for teaching primary school*

pupils to compose stories through associative chains. It discusses the stages and didactic principles of the approach and its potential to develop vocabulary, independent thinking, and coherent narration. The proposed stages are preparation, generating associations, planning, composing, and revising a story.

Keywords: *association, associative chain, story composition, primary education, language development, creative thinking, didactic principles.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining o‘z fikrini o‘g‘zaki va yozma ravishda izchil ifodalashi, voqealarni mantiqiy bog‘lashi va mustaqil matn yaratishi muhim natijalardan hisoblanadi. Hikoya tuzish jarayonida o‘quvchi so‘z tanlaydi, gaplar o‘rtasidagi aloqani belgilaydi va mazmunni yaxlit shaklga keltiradi. Biroq ayrim bolalar hikoyani boshlash, voqealarni ketm-ket joylashtirish yoki matnni yakunlashda qiynalishi mumkin. Shu sababli fikrni bosqichma-bosqich tashkil etishga yordam beradigan metodik visitalar zarur.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23- sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi hamda ta’limning uzluksizligi, izchilligi va teng imkoniyatlarini belgilaydi . Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan ushbu hujjat ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar uchun huquqiy asoslardan biridir. Assotsiatsiya – bir tushuncha , so‘z yoki obrazning boshqa tushuncha bilan ongda bog‘lanishidir. Assotsiativ zanjir esa bir boshlang‘ich tushunchadan mazmunan aloqador so‘zlar yoki tasvirlar ketma-ketligini hosil qilishdir. Masalan “bahor” so‘zi “yomg‘ir”, “gullar”, “yashillik”, “qushlar” va “barg” tushunchalarini yuzaga keltiradi. O‘quvchilar bu tushunchalarni voqealar bilan bog‘lab, hikoya yaratishi mumkin.

Maqolaning maqsadi – assotsiativ zanjirlar asosida hikoya tuzishga o‘rgatish metodikasini nazariy jihatdan asoslash, bosqichlarini belgilash va uni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi didaktik tamoyillarni yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy tadqiqotlarda hikoya yaratishni rejalashtirish, visual vositalar va hamkorlikdagi faoliyat bilan bog‘lashga e’tibor qaratiladi. Ceung chiqishning ahamiyatini o‘rgangan. Pakpahan zanjirli hikoya usulini yozma matn yaratish bilan birga bog‘liq holda tahlil qildi. Rahmashati va Nurlia komikslar bilan birga qo‘llangan zanjirli yozuv usulini ko‘rib chiqqan. Polat va Dedeog‘lu hamkorlikdagi hikoya xaritalarining hikoya yozish ko‘nikmalariga ta’sirini o‘rgangan. Cahyaningtyas va hammualliflar zanjirli yozuv metodidan foydalanish imkoniyatlarini yoritgan.

Mazkur ishlar hikoya tuzishda bosqichma-bosqich rejalashtirish, ko‘rgazmalilik va o‘quvchilar faolligining ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq assotsiativ zanjirlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil hikoya yaratish faoliyati bilan tizimli bog‘lash alohida metodik yechim talab qiladi. Maqolada nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalardagi yondashuvlar qiyoslandi va ular asosida hikoya tuzishning namunaviy bosqichlari hamda didaktik tamoyillari tizimlashtirildi. Maqola nazariy-metodik xususiyatga ega; unda tajriba sinov natijalari yoki statistik ma’lumotlar keltirilmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Metodikaning bosqichlari

1. Tayyorgarlik va motivatsiya. O‘qituvchi mavzuga oid rasm, predmet yoki tayanch so‘zni taqdim etib, o‘quvchilarning avvalgi bilimlarini faollashtiradi. “Bu so‘z sizga nimani eslatadi?” kabi savollar qiziqish uyg‘otadi.

2. Assotsiatsiyalarni aniqlash. O‘quvchilar boshlang‘ich tushuncha bilan bog‘liq so‘zlarni aytadilar. Masalan, “do‘stlik” tushunchasi “yordam”, “mehr”, ”birgalikda o‘ynash” va “ishonch” bilan bog‘lanishi mumkin.

3. Zanjirni rejalashtirish. Tanlangan tushunchalar hikoya mazmuniga muvofiq tartibga solinadi. O‘quvchilar voqeaning boshlanishi, rivoji va yakunini belgilaydilar.

4. Hikoya yaratish. O‘quvchilar zanjirdagi tushunchalarni gaplarga aylantirib, og‘zaki yoki yozma hikoya tuzadilar. “Dastlab”, “keyin”, “shundan so‘ng”, “natijada” kabi birliklar voqealarni bog‘lashga yordam beradi.

5. Tahrirlash va baholash. Hikoyaning mavzuga mosligi, izchilligi, mazmuniy yaxlitligi, so‘z boyligi va Grammatik to‘g‘riligi tekshiriladi. O‘quvchi matnni qayta ko‘rib chiqib, zarur tuzatishlar kiritati.

Metodikani amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim: izchillik va tizimlilik – oddiy assotsiatsiyalarda yaxlit matnga bosqichma-bosqich o‘tish; onglilik va faollik – o‘quvchilarning mustaqil so‘z tanlashi va bog‘lanishni izohlashi; ko‘rgazmalilik – rasm, predmet va hikoya xaritalaridan foydalanish; individual yondashuv – topshiriqlarnini o‘quvchilar tayyorgarligiga moslashtirish; kommunikativlik – hikoyalarni tinglash, muhokama qilish va taqdim etish; ijodkorlik – bir mavzu bo‘yicha turli mazmunli hikoyalarga imkon berish; hayot bilan bog‘liq – o‘quvchi tajribasiga yaqin mavzularni tanlash. Ushbu tamoyillar bir birini to‘ldiradi. O‘qituvchi tayyor hikoya berish o‘rniga yo‘naltiruvchi savollar orqali o‘quvchining fikrini rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Masalan, “daraxt – qush” bog‘lanishida “Qush daraxt bilan qanday bog‘langan?” deb so‘raladi. “Qush daraxtga uya quradi” javobi zanjirni mazmunli voqeaga aylantiradi.

Metodikani mustahkamlash uchun besh mashq tavsiya etiladi: “Bir so‘z – ko‘p fikr” – berilgan so‘zga oid assotsiatsiyalarni aytish; “Zanjirni davom ettir” – mazmunan bog‘liq so‘zlar topish; “Rasmlar hikoya so‘laydi” – rasmlarni voqealar tartibida joylashtirish; “Zanjirdan hikoyaga” – tayanch so‘zlardan hikoya yaratish; “Hikoyani boyit” – tavsif va yangi voqealar qo‘shish. Baholashda assotsiatsiyalarning mavzuga mosligi, voqealar izchilligi, hikoyaning boshlanishi va yakuni, lug‘at boyligi, mustaqillik hamda imlo-grammatik me’yorlarga rioya qilish hisobga olinadi. Bu mezonlar o‘qituvchiga o‘quvchining kuchli jihatlarini va qo‘shimcha yordam talab ko‘nikmalarini aniqlash imkonini beradi. Taklif etilgan model nazariy jihatdan hikoya yaratish jarayonini tartibga solishi mumkin. Biroq uning samaradorligi haqida qat’iy xulosa chiqarish uchun sinf sharoitida tajriba-sinovdan o‘tkazish, o‘quvchilarning dastlabki va yakuniy ishlarini bir xil mezonlar asosida taqqoslash zarur.

Metodik modelning amaliy ko‘rinishini “Bahorgi kun” mavzusi misolida ko‘rsatish mumkin. Dastlab o‘qituvchi bahor tasvirlangan rasmni namoyish etadi va o‘quvchilardan rasmda nimalarni ko‘rayotkanini aytishni s’raydi. Javoblar doskaga yoziladi: bahor, quyosh, iliq havo, gullar, qushlar, yomg‘ir, bog‘. Masalan, “iliq havo – gullar ochilishi”, “gullar – asalarilar”, “yomg‘ir – o‘simliklarning o‘sishi” kabi bog‘lanishlar hosil qilinadi. So‘ng zanjirdagi so‘zlar voqealar ketma-ketligiga mos ravishda tartiblanadi: bahor keldi – havo isidi – bog‘da gullar ochildi – bolalar sayrga chiqdi – ular ko‘chat ekishga yordam beradi. O‘quvchilar zanjir asosida hikoya rejasini tuzadilar. Reja: “Bahor kelishi”, “Bog‘dagi ishlar”, “Yaxshi natija” kabi qismlardan iborat bo‘lishi mumkin. Shundan so‘ng har bir o‘quvchi yoki kichik guruh mazmunni gaplaar bilan kengaytiradi, voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini kiritadi va hikoyaga sarlavha tanlaydi. Bu jarayonda assotsiativ zanjir tayyor matnning o‘rnini bosmaydi; u fikrni rejalashtirishga yordam beradigan tayanch vosita vazifasini bajaradi. O‘quvchi zanjirdagi har bir so‘zni hikoyaga kiritishi shart emas. Muhimi, tanlangan birlikdagi mavzuga xizmat qilishi, voqealar mantiqiy bog‘lanishi va matnning yaxlitligi saqlanishidir. Shu sababli o‘qituvchi bir nechta maqbul variant mavjudligini tan olishi, bolalarning noodatiy, lekin mazmunan asosli yechimlarini rag‘lantirishi kerak.

Metodikaning samarali qo‘llanilishida o‘qituvchining topshiriqni aniq qo‘yishi va yordamni o‘quvchi ehtiyojiga qarab taqsimlashiga bog‘liq. Hikoya tuzishda qiynalayotkan o‘quvchiga rasmli kartochkalar, tayanch so‘zlar yoki gap bog‘lanishlari berilishi mumkin: “Bir kuni…”, “Shundan keyin…”, “Oxirida…”. O‘rtacha tayyorgarlikdagi o‘quvchi mustaqil zanjir tuzadi, kuchliroq o‘quvchi esa hikoyaga dialog, tavsif yoki kutilmagan, ammo mantiqan asoslangan voqeani kiritishi mumkin. Bunday farqlash barcha o‘quvchilarning bir xil maqsad sari imkoniyatiga mos yo‘l bilan harakat qilishiga yordam beradi. Guruhli ishda vazifalarni taqsimlash ham muhim: biir o‘quvchi assotsiatsiyalarni tashkil qiladi, ikkinchisi ularni tartiblaydi, uchinchisi hikoya rejasini tuzadi, yana biri matnni ifodali o‘qib beradi. Keyin roller almashtiriladi. Bu usul faqat matn yaratish emas, balki tinglash, fikrni almashtirish, fikrni asoslash,o‘zaro tahrirlash malakalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq guruh natijasi bilan birga har bir o‘quvchining individual hissasini ham kuzatish lozim.

Hikoya sifatini baholashda faqat imlo xatolariga tayanish to‘g‘ri emas. Dastlab mazmunni rejalashtirish, fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanish va mustaqil ifodalash darajasini ko‘rib chiqish kerak; imlo va Grammatik to‘g‘rilik esa matnni tahrirlash bosqichida alohida e’tiborga olinadi. O‘quvchiga mezonlar oldidan tushuntirilsa, u o‘z ishini tekshirish va keying safar nimani yaxshilash kerakligini anglash imkoniga ega bo‘ladi.

Tavsiya etilgan mezonlar: 1) assotsiyalarning mavzuga mosligi; 2) so‘z va voqealarning mantiqiy ketma-ketligi; 3) hikoyada boshlanish, rivoj va yakunning mavjudligi; 4) so‘z boyligi hamda gaplarning xilma-xilligi; 5) mustaqillik va ijodiy yondashuv; 6) imlo, tinish belgilari va grammatik me’yorlarga rioya qilish. Har bir mezon bo‘yich “boshlang‘ich”, “rivojlanayotgan” va “mustaqil” kabi tavsifiy darajalarda foydalanish mumkin. Bunday baholash o‘quvchilarni bir-biri bilan taqqoslashdan ko‘ra, o‘z oldingi natijasiga nisbatan o‘sishini ko‘rsatishga yo‘naltiradi. Assotsiativ zanjirlar barcha o‘quvchilarda bir xil berishini oldindan aytib bo‘lmaydi. Ayrim bolalar so‘zlar orasidagi bog‘lanishni tez topishi, boshqalari esa qo‘shimcha savol yoki ko‘rgazmali yordamga ehtiyoj sezishi mumkin. Ba’zan o‘quvchi ko‘p assotsiya aytadi, lekin ularni izchil hikoyaga aylantirishda qiynaladi. Shu bois metodikani bir martalik mashq sifatida emaas, balki og‘zaki hikoyalash, reja tuzish, yozma matn yaratish va tahrirlash bilan izchil bog‘langan mashg‘ulot tizimida qo‘llash maqsadga muvofiq. Mazkur maqolada taklif etilgan bosqichlar nazariy tahlil va metodik umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan. Ularning amaliy samaradorligini aniqlash uchun turli tayyorgarlik darajasidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida tajriba-sinov tashkil etish, dastlabki va yakuniy hikoyalarni bir xil mezonlar asosida tahlil qilish zarur. Kelgusi tadqiqotlarda o‘quvchilarning assotsiatsiya topish tezligi, hikoya tuzilmasiga rioya qilishi, lug‘at xilma-xilligi va mustaqil tahrirlash ko‘nikmasidagi o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. Bu esa metodik tavsiyalarni amaliy dalillar bilan boyitishga imkon beradi.

XULOSA

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, assotsiativ zanjirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga alohida so‘z va tushunchalarni o‘zaro bog‘lab , yaxlit hikoya yaratishga yordam beruvchi didaktik vosita bo‘la oladi. Metodikaning besh bosqichi – tayyorgarlik, assotsiatsiyalarni aniqlash, zanjirni rejalashtirish, hikoya yaratish hamda tahrirlash – o‘quvchining fikrni topishdan uni izchil bayon etishgacha bo‘lgan faoliyatini tartibga soladi. Izchillik, faollik, ko‘rgazmalilik, individual yondashuv, kommunikativlik, ijodkorlik va hayot bilan bog‘liqlik tamoyillarini uyg‘un qo‘llash hikoya tuzish mashg‘ulotlarini o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Tavsiya etilgan mashqlar lug‘at boyligini faollashtirish, mantiqiy bog‘lanishlarni anglash va matnni qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmalarini mashq qildirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur metodikaning amaliy samaradorligi empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida: O‘RQ-637-son Qonun. 23.09.2020. https://lex.uz/docs/-5013007

2. Cheung, A. Digitizing the story-writing process for EFL primary learners: An exploratory study. Language Teaching Research, 2021. https://doi.org/10.1177/13621688211027772

3. Pakpahan, Y. S. The Effect of Using Chain Story Technique in Writing Descriptive Text for the Grade Students of SMP Negeri 14 Medan. The Explora, 2021. https://ejournal.uhn.ac.id/index.php/explora/article/view/520

4. Rahmawati, H., Nurlia, R. The Success of Using a Chain Writing Method With Comic Strip to Teach Writing to Junior High School Students. Journal of Development Research, 2022. https://doi.org/10.28926/jdr.v6i2.257

5. Polat, İ., Dedeoğlu, H. An Analysis of the Effect of Using Collaborative Story Maps on Story Writing Skills. International Online Journal of Primary Education, 2024. https://dergipark.org.tr/en/pub/iojpe/article/1473300

6. Cahyaningtyas, A. N., Riyadi, S., Kariadi, M. T. Using Chain Writing Method to Improve the Students’ Skills in Writing Descriptive Texts. Vokasia, 2024. https://doi.org/10.20884/1.vokasia.2024.4.1.12141

7. Allo, A. D., Wahibah, W., Thayyib, M. Using story mapping technique in teaching writing skills at SMAN 1 Palopo. FOSTER: Journal of English Language Teaching, 2020, 1(2), 114–121.

8. Al-Shiblawy, S. K. Z. The effect of the story map strategy in improving the short story writing skills of middle school students in Iraq. Nasaq, 2020, 28, 986–998.

9. Bui, L. A. P., Hsieh, I. H. Creative writing instruction for primary students: An in-depth analysis in the context of curriculum reform in Vietnam. International Online Journal of Primary Education, 2024, 13(2), 109–121.

10. Varlık, S., Varlık, F. Mindful attention awareness in primary school teachers: How does creative and reflective thinking occur without it? A mixed methods research. International Online Journal of Primary Education, 2024, 13(2), 135–149.